zilatlar ilgari suriladi. To‘g‘ri, har bir maqol va matal ham shakl, ham ma’no, ham funksional jihatdan o‘ziga xos xususiyatga ega. Maqollarning yana bir tarafi borki, bular deyarli ko‘p hollarda umumiy mazmun mohiyati shakllangan holda o‘xshashliklarga ega bo‘ladi. **It hurar, karvon o‘tar,** Ajdarga chiqora chaqsa gar ilon, It xurar va lekin to‘xtamas karvon (F.Sh.265) **Har kim birovga choh qazisa, o‘zi tushadi,** Hiylagar Farhodga qaziyman deb chox, Uning o‘zi qular bu choxga nogoh (F.Sh.271). A.Navoiy o‘z asarlarida xalq donishmandligidan unumli foydalangan. Demak, Alisher Navoiy xalq maqollarini ay-nan takrorlamaydi, balki ularning mazmuniy asosini saqlagan holda badiiy tafakkur mahsuli sifatida qayta ishlaydi. Natijada maqollar shoir asarlarida lingvomadaniy birlik sifatida milliy tafakkur, axloqiy qadriyat-lar va xalq donishmandligini ifodalovchi muhim madaniy-semantik vositaga aylanadi. Bu holat Navoiy ijodining xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liqligini hamda uning barqaror til birliklaridan foydalanishdagi yuksak badiiy mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan barqaror til birliklari nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki xalqning milliy tafakkuri, ma’naviy qadriyatlari va madaniy tajribasini o‘zida mujassam etgan muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Ularning madaniy-semantik tahlili mazkur birliklarning chuqur ma’no qatlamlari, konseptual mazmuni hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Navoiy asarlaridagi frazeologik birliklar, maqol va matallar, turg‘un iboralar hamda boshqa barqaror til birliklari milliy dunyoqarash, axloqiy-me’yoriy qarashlar va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy ifodasini ta’minlaydi. Shuningdek, ushbu birliklar asarlarning ta’sirchanligi va estetik qimmatini oshirish bilan birga, muallifning individual uslubini namoyon etuvchi muhim til vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois Alisher Navoiy asarlaridagi barqaror til birliklarini madaniy-semantik jihatdan o‘rganish o‘zbek tilshunosligi, frazeologiyasi va lingvomadaniyatshunosligi rivojida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Yo‘ldoshev N. Alisher Navoiy asarlarida til va uslub. Toshkent, 1998, 55–56-betlar.

(2). Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол.фанлари доктори диссертацияси автореферати, Тошкент, 1993, 46-бет.

(3). Алматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фан. номз. дисс., Тошкент, 2008, 12-бет.

(4). Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Самарқанд, СамДУ нашри, 1999, 71-бет.

(5). Шамсиддинов Ҳ. Сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1995, 1-сон, 65–69-бетлар.

(6). Қиличев Б. Фразеологик синонимия хусусида. “Илм сарчашмалари”, УрДУ нашри, 2005, 3-сон, 52–54-бетлар.

Shernazarova Gulshan Abdullayevna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi)

NISHOTIY “HUSN-U DIL” DOSTONIDAGI MUNOZARALI AYRIM ETIMOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Muhammad Niyoz Nishotiyning “Husn-u Dil” dostonida uchraydigan ayrim turkiy leksemalarning etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, xoqon, xon, ko‘ngul va qiz leksemalarining kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi hamda semantik xususiyatlari qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida ushbu leksemalarning turkiy ildizlari va badiiy matndagi funksional xususiyatlari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar*: Nishotiy, Husn-u Dil, etimologiya, turkiy leksika, tarixiy leksikologiya, ko‘ngul, xoqon, xon, qiz.*

АНАЛИЗ ЭТИМОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ТЮРКСКИХ ЛЕКСЕМ В ПОЭМЕ НИШОТИ «ХУСН-У ДИЛ»

Аннотация. *В данной статье рассматриваются этимологические особенности некоторых тюркских лексем, встречающихся в поэме Мухаммада Нияза Нишоти «Хусн-у Дил». Анализируются происхождение и семантическое развитие слов хакан, хан, кўнгул и киз. В работе используются сравнительно-исторический и этимологический методы исследования.*

Ключевые слова*: Нишоти, Хусн-у Дил, этимология, тюркская лексика, историческая лексикология, конгул, хакан, хан, киз.*

ANALYSIS OF THE ETYMOLOGICAL FEATURES OF TURKIC LEXEMES IN NISHOTI'S POEM "HUSE-U DIL"

Annotation. *This article analyzes the etymological features of several Turkic lexemes found in Muhammad Niyaz Nishoti's poem "Husn-u Dil'. The origin and semantic development of the words khagan, khan, kongul and qiz are examined and the scientific views of different scholars are compared.*

Keywords: *Nishoti, Husn-u Dil, etymology, Turkic lexicon, historical lexicology, kongul, khagan, khan, qiz.*

Kirish. Turkiy tillarning tarixiy leksikologiyasida ayrim leksemalarning kelib chiqishi va birlamchi ma'nolarini aniqlash muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, ijtimoiy-siyosiy hamda somatik terminlarning etimologiyasi, ko'pincha, turli til oilalari doirasida turlicha talqin qilinadi. Muhammad Niyoz Nishotiyning "Husn-u Dil" dostoni XVIII asr o'zbek adabiy tilining leksik qatlamini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzu yuzasidan ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, G.Clauson, E.V.Sevortyan, M.Resenen, T.Gulensoy kabi tadqiqotchilar turkiy leksemalarning etimologiyasi va semantik rivoji haqida muhim ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Ushbu ilmiy manbalarda turkiy leksikaning tarixiy ildizlari va boshqa tillar bilan aloqalari keng tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, etimologik va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Dostondagi ayrim leksemalarning qo'llanilish konteksti o'rganilib, ularning turli ilmiy manbalarda berilgan talqinlari bilan qiyoslandi.

Tahlil va natijalar. Turkiy tillarning tarixiy leksikologiyasida bazi leksemalarning kelib chiqishi va birlamchi ma'nolari haqida yagona ilmiy to'xtamga kelinmagan. Xususan, ijtimoiy-siyosiy va somatik terminlarning etimologik ildizlari, ko'pincha, turli til oilalari (turkiy, mo'g'ul, xitoy, hatto nostratik makrooila) kesimida munozaralarga sabab bo'lib keladi. XVIII asr Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Muhammad Niyoz Nishotiyning "Husn-u Dil" dostoni bu borada boy lingvistik material taqdim etadi.

Ushbu dostondagi xoqon, xon, ko'ngul va qiz kabi leksemalarning qo'llanilishi nafaqat davr adabiy tilini, balki turkiy so'zlarning asrlar davomida yashab kelayotgan murakkab semantik strukturasini ham ko'rsatadi. Ushbu maqolaning maqsadi mazkur so'zlarning kelib chiqishi borasidagi turlicha ilmiy qarashlarni (G.Kloson, M.Resenen, E.Sevortyan, T.Gulensoy va boshqalar) qiyoslash hamda Nishotiy matnidagi kontekstual ma'nolar orqali ularning munozarali etimologiyasiga oydinlik kiritishdan iborat.

Nishotiyning "Husn-u Dil" dostonida qo'llangan xoqon so'zi ijtimoiy-siyosiy leksikaning eng qadimgi qatlamiga mansub bo'lib, u turkiy tillarning davlatchilik tarixi va iyerarxik tizimini ifodalovchi markaziy terminlardan biridir.

Xoqon qadimgi turkiy tildagi qaγan shaklidan kelib chiqqan bo'lib, eng yuqori martabali hukmdorni ifodalagan. Ilmiy manbalarda bu so'zning turkiy ekani quyidagicha asoslanadi:

G.Kloson o'zining etimologik lug'atida qağan so'zini imperator yoki oliy hukmdor deb tariflaydi va uning ilk bor Jou-jou (Rouran) davlatida, so'ngra Turk xoqonligida rasmiy unvon sifatida qo'llanganini takidlaydi. E.V.Sevortyan ushbu leksemani turkiy tillarning eng qadimgi davlat boshqaruvi tizimi bilan bog'laydi: "Xoqon turkiy xalqlarda xondan yuqori turuvchi, bir necha ulusni boshqaruvchi imperator darajasidagi hukmdordir".

Nishotiy dostonida xoqon so'zi ikki xil ma'noda qo'llangan: "Afsari xoqoni viloyatpanoh" misrasida hukmdorning nafaqat viloyat egasi, balki butun mamlakatning oliy rahnamosi ekani ta'kidlangan. Dostonning "Pardasi Fag'fur ila Xoqon dog'i" baytida Xoqon (odatda, Turkiston hukmdori) va Fag'fur (Xitoy imperatori) ismlari Fuodshohning qudrati oldida ular bandadek zaif ekanini ko'rsatish uchun mubolag'a sifatida keltirilgan.

Tilshunoslikda ushbu so'zning turkiy ekanini asoslovchi bir necha nazariya mavjud: Ba'zi tadqiqotchilar so'zning o'zagini turkiy qag' (baland ko'tarmoq, haydamoq) feliga bog'laydilar. V.Radlov ushbu so'zni turkiy xalqlarning oliy boshqaruv an'analarining mahsuli deb biladi.

Oltoy tillari etimologik lug'atida ushbu so'zning turkiy, mo'g'ul va tungus-manjur tillaridagi mushtarak ildizlari ko'rib chiqiladi. S.Starostin bu so'zning turkiy tillardagi shakli eng barqaror va birlamchi ekanini qayd etadi: "QA-GAN shakli turkiy tillarning ichki qonuniyatlari asosida rivojlangan, keyinchalik, qo'shni tillarga o'zlashgan. So'zning sof turkiy ekanining eng katta dalili Kultegin va Bilga Xoqon bitiglaridagi qo'llanilishidir: "Turk kag'an olurmish" Turk xoqoni taxtga o'tirdi). Bu manbalar arab yoki fors ta'sirigacha bo'lgan davrga oid bo'lib, so'zning turkiy etnosiga tegishliligini isbotlaydi.

Nishotiy dostonida xoqon so‘zining qo‘llanishi XVIII asr Xorazm adabiy muhitida hali ham qadimgi turkiy davlatchilik terminlari tirik bo‘lganini ko‘rsatadi. So‘z o‘zining imperator, oliy sulton ma’nosi bilan dostonning epik ko‘lamini oshirishga xizmat qilgan.

Doston leksikasini tadqiq etishda markaziy somatizmlardan biri bo‘lgan ko‘ngul so‘zining etimologik va semantik tahlili til tarixi uchun g‘oyat muhimdir.

Ko‘ngul so‘zining kelib chiqishi borasida turli nazariyalar mavjud. Sh.V.Nafikovning qayd etishicha, ko‘pgina tadqiqotchilar ushbu somatizmning ildizini substantiv (ot) emas, balki kөng- kutmoq, javdiramoq feliga bog‘laydilar va so‘z -(a)l affiksi yordamida yasalgan yasama so‘z deb hisoblanadi. Tunjer Gulensoy esa o‘zining “Türkiye Türkçesindeki Türkçe Sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü” asarida ko‘ngul (gönül) so‘zini eski turkiy tildagi көңül shaklidan kelib chiqqanini ta’kidlab, uning ma’nosini “qalb, yurak; istak, xohish” deb belgilaydi. M.Resenen rekonsturksiyasiga ko‘ra, көŋül, dastlab, “fikr” tushunchani ifodalagan, keyinchalik esa somatik termin sifatida “yurak”, “ko‘krak qafasining pastki qismi” ma’nolarini kasb etgan. Dostonda ushbu somatizm insonning ichki kechinmalari, irodasi va ma’naviy olamini ifodalashda bosh omil bo‘lib xizmat qiladi:

“Ne ani rad qilg‘ali toptim vusul,

Ne ani tavan ko‘ngul etti qabul” (HD, 184-bet). Ushbu misrada ko‘ngul faol subyekt sifatida kelib, insonning ichki irodaviy qarorini ifodalamoqda.

Husnga ham bir kishi irsol etay,

So‘zing ila ko‘ngulni xushhol etay (HD, 219-bet). Bu yerda ko‘ngul xursandlik va shodlik hissini jamlovchi manaviy substansiya manosida kelgan.

Bo‘ldi ular taxt uza masnadnishin,

Bir-biriga jon ko‘nguldek yaqin (HD, 264-bet). Bunda shoir jon va ko‘ngul tushunchalarini yonmayon qo‘llash orqali inson mavjudiyatining eng yuqori yaqinlik darajasini majoziy ifodalaydi.

Sh.V.Nafikov o‘z maqolasida ko‘ngul so‘zining asosini tashkil etuvchi qvn / kvn o‘zagining dunyo tillaridagi keng tarqalishiga e’tibor qaratadi. V.M.Illich-Svitich rekonsturktsiyalariga tayangan holda, ushbu o‘zak chukot tilidagi kange-, xant tilidagi kon (qorin) va kopt tilidagi hun (ichki dunyo) so‘zlari bilan genetik yaqinlikka ega ekani ta’kidlanadi. Xitoy tilidagi gān (jigar, vijdon) va Kavkaz tillaridagi kone (qorin) so‘zlari somatizmning semantik ko‘lami nafaqat “yurak”, balki “ichki a’zolar” va “ma/naviy o‘rtalik” tushunchalarini ham qamrab olishini ko‘rsatadi.

Dostonda ko‘ngul so‘zi tez-tez dil (forscha o‘zlashma) va fuod, qalb (arabcha o‘zlashmalar) so‘zlari bilan sinonimik qator hosil qiladi: “Diydai dilg‘a beribon adli nur” (HD, 163-bet). Asar qahramonining ismi ham aynan Fuod (arabcha – yurak, ko‘ngul) bo‘lib, butun sujet ko‘ngulning (Fuodning) kamolot va visol sari intilishiga qurilgan.

Dostonda ko‘ngul leksemasi shunchaki anatomik atama emas, balki kognitiv metafora vazifasini bajaradi. T.Gulensoy takidlaganidek, ushbu so‘z turkiy tillarda “insonning sevgi, nafrat va imon kabi tuyg‘ulari tug‘iladigan markaz” sifatida konseptuallashgan.

Qiz so‘zi turkiy tillarning eng qadimgi leksik qatlamiga mansub bo‘lib, uning kelib chiqishi qadimgi turkiy tildagi yorug‘lik, issiqlik va rang konseptlari bilan bog‘lanadi. Tilshunoslikdagi asosiy nazariyalardan biriga ko‘ra, qiz so‘zining asosida “porloq”, “nurli” yoki “qizil” (qizigan) ma’nolari yotadi. Bu leksema yonmoq, issiq bo‘lmoq ma’nosidagi fe’l o‘zagidan kelib chiqqan bo‘lib, T.Gulensoy ta’kidlaganidek, eski turkiy tildagi qiz shakli qiz bola, ayol farzand; bokira qiz ma’nolarini ifodalagan.

Ushbu so‘z deyarli barcha turkiy tillarda mushtarakdir: ozarbayjoncha qız, boshqirdcha ҡыҙ, qozoqcha qыz, turkcha kız, yoqutcha kыыs va chuvashcha хĕр. So‘zning “qizil” (qizimoq) rangi bilan bo‘lgan genetik aloqasi turkiy madaniyatda qiz bolaning go‘zalligi va iffatini ramziy ifodalashga xizmat qilgan.

Til tarixida qiz shakliga ega bo‘lgan, lekin ma’nosi turlicha bo‘lgan bir nechta shakldosh (omonim yoki eski tilshunoslik terminologiyasida mutajonis) so‘zlar mavjud. A.Rustamov ta’kidlaganidek, qiz shaklidagi so‘zlarni quyidagi mustaqil ma’no guruhiga ajratish mumkin: 1. Qizmoq fe’lining o‘zagi va buyruq shakli bo‘lib, u issiq bo‘lmoq ma’nosini anglatadi. 2. Jinsiy mansublikni anglatuvchi, o‘g‘il va yigit so‘zlarining ziddi (antonimi) bo‘lgan qiz so‘zidir. Dostonda bu ma’no farzandlik va ijtimoiy maqom kontekstida faol qo‘llanadi:

Moliki bahrning bor edi bir qizi,

Orazi hur edi oyog‘i izi (HD, 196-bet).

3. Xasis ma’nosidagi qiz so‘zi. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida bunga misol qilib Qiz kishi savi yo‘rig‘li bo‘lmas (Xasis kishining dong‘i chiqmas) maqolini keltiradi. 4. Qiymatli, qadrli va qudratli manosidagi qiz so‘zidir. Bu mano qadimgi turkiy yodgorliklarda, xususan, Yusuf Xos Hojibning

“Qutadg‘u bilig” asarida o‘z ifodasini topgan: “Qiz ermas bu yalnchuq, kishilik qiz o‘l” (Bu odamning o‘zi qadrli emas, uning odamiyligi qadrlidir).

Xalq tilida saqlanib qolgan qiz o‘rtoq (masalan, “Salimjon mening qiz o‘rtog‘im”) iborasidagi qiz so‘zi aynan mana shu to‘rtinchi ma’noga qadrli tushunchasiga borib taqaladi. Bu Nishotiy dostoni leksikasidagi qiz obrazining (Husn) nafaqat jinsiy, balki manaviy jihatdan “eng qadrli va nodir” timsol sifatida talqin qilinishi bilan mantiqiy bog‘lanadi.

Muhammad Niyoz Nishotiy o‘z dostonida qiz leksemasini bir nechta ma’noviy qirralarda qo‘llaydi:

Turmushga chiqmagan ayol (bokira) ma’nosida:

Umri o‘lub zolim falakdin ziyod,

Qiz edi er topmayin ul badnihod. Ushbu misrada so‘z o‘zining dastlabki semantik manosida hali oila qurmagan ayol shaxsini ifodalash uchun qo‘llangan.

Ijtimoiy maqom va raqobat obyekti sifatida:

Lek netay, degusindur xalq fosh,

Bir er uza ikki qiz aylar talosh. Bu yerda qiz so‘zi nafaqat jinsni, balki muayyan ijtimoiy vaziyatdagi shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Farzand (qarindoshlik termini) ma’nosida:

Moliki bahrning bor edi bir qizi,

Orazi hur edi oyog‘i izi. Bu baytda so‘z egalik qo‘shimchasi bilan kelib, hukmdorning ayol jinsidagi zurriyodini anglatmoqda.

Nishotiy dostoni leksikasida qiz so‘zi qadimgi turkiy ildizlarga sodiq qolgan holda, ham biologik jins, ham qarindoshlik, ham ijtimoiy holatni ifodalovchi universal leksema sifatida ishtirok etadi.

Asardagi xon leksemasi turkiy va mo‘g‘ul davlatchilik an’analariga chuqur ildiz otgan asosiy ijtimoiy-siyosiy terminlardan biri hisoblanadi. Quyida ushbu so‘zning etimologik lug‘atlar va tarixiy ma’lumotlarga asoslangan batafsil ilmiy tahlili keltirilgan.

Xon (turkiy χan) so‘zi qadimgi oltoy tili ildizlariga borib taqaladi. Fanda uning kelib chiqishi haqida bir nechta asosiy talqinlar mavjud:

1. Ko‘pchilik tadqiqotchilar ushbu unvonni asl mo‘g‘ulcha yoki turkiy so‘z deb hisoblaydilar. M. Fasmerning etimologik lug‘atiga ko‘ra, rus tilidagi xan so‘zi turk, uyg‘ur yoki chig‘atoy (eski o‘zbek) tillaridan (χan – xon, imperator) o‘zlashgan. Fasmer V.Radlovga tayanib, ushbu terminning sharq tillarida keng tarqalganligini tasdiqlaydi.

Manbalarda qayd etilishicha, xon unvoni qadimgiroq bo‘lgan qog‘on (xoqon) so‘zining qisqargan shakli bo‘lib, u “xonlar xoni” yoki “imperator” manosini anglatgan. XII asrgacha xoqon so‘zi turkiylar, uyg‘urlar va mo‘g‘ullarning oliy hukmdoriga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, xon so‘zi dastlab shunchaki “qabila boshlig‘i” yoki “janob” manolarini anglatishi mumkin bo‘lgan. Ayrim olimlar (masalan, Ramstedt) ushbu unvonning ildizlarini xitoy tilidan (ku-an – hukmdor) qidirganlar, biroq zamonaviy oltoyshunoslikda terminning turkiy tabiati yetakchi nazariya bo‘lib qolmoqda.

Nishotiy matnida leksema ikkita o‘ziga xos ma’noda qo‘llaniladi:

Berdi Tabassumga shakardin misol,

Bo‘ldi ulus xoni-yu shakkar maqol (HD, 220-b.).

Bu yerda xon so‘zi “ega”, “hukmdor” ma’nosida ishlatilgan, ammo ko‘chma ma’noda xalq (ulus) uchun ne’matlar manbayi sifatida talqin qilingan.

Oni dog‘i mulki Badan uzra xon

Aylag‘omen, – dedi shohi hukmron (HD, 211-b.).

Bu o‘rinda unvon ramziy Badan mulki ustidan hukmronlikni anglatish uchun ishlatilgan. Bu asarning ierarxik tuzilishini urg‘ulaydi, ya’ni xon oliy hokimiyatga ega bo‘lgan hukmdordir.

Xon unvoni uzoq taraqqiyot jarayonini bosib o‘tgan. Ilk bor III asrda Markaziy Osiyodagi syanbi qabilalariga nisbatan qayd etilgan. Mo‘g‘ullar imperiyasi parchalanganidan keyin tashkil topgan davlatlarda xon davlat rahbari unvoni bo‘lgan. Usmoniylar imperiyasida bu unvon sulton nomiga qo‘shib aytilgan. Tarixan (masalan, O‘tar Osiyo, Qozoq yoki Qrim xonliklarida) xonni saylash “oq kigizga ko‘tarish” marosimi bilan birga kechgan, bu esa uning legitimligi (qonuniyligi) barcha zodagonlar tomonidan tan olinganini anglatgan.

Nishotiyning “Husn-u Dil” dostonidagi o‘z qatlam leksikasini etimologik jihatdan tadqiq etish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy-siyosiy leksikada qo‘llangan xoqon va xon terminlarining qadimgi turkiy shakllaridan rivojlanishi ularning boshqa tillardan o‘zlashganligi haqidagi gipotezalardan ko‘ra turkiy asosga ega ekanligini ko‘proq tasdiqlaydi. Nishotiy ushbu terminlarni badiiy allegoriya sifatida ishlatib, qadimgi davlatchilik terminlariga yangi semantik jilo bergan.

Somatik leksikaning markazi bo‘lgan ko‘ngul so‘zining etimologiyasi uning nafaqat turkiy, balki chuqur nostratik ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Munozaralarda ilgari surilgan kөng- yoki “fikr” versiyalari doston matnidagi iroda va hissiyot markazi ma’nolari bilan uzviy bog‘lanadi.

“Qiz” leksemasining tadqiqi shuni ko‘rsatdiki, bu so‘z faqat jins va yosh belgisi emas, balki omonimik jihatdan “qadrli, nodir” degan ma’nolarni ham anglatishi bilan munozarali semantik maydon hosil qiladi. Nishotiy tilida bu so‘zning eng yuqori ma’naviy qadriyat sifatida talqin qilinishi qadimgi turkiy “qiz” (qimmatli) konseptlarining davomidir.

Xulosa qilib aytganda, “Husn-u Dil” dostonidagi munozarali etimologiyaga ega so‘zlar tahlili XVIII asr o‘zbek tilining sof turkiy negizi naqadar mustahkam bo‘lganini va bu negiz til tarixidagi murakkab etimologik zanjirlarni tushunishda kalit bo‘lib xizmat qilishini isbotlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, "Husn-u Dil" dostonida qo‘llangan xoqon, xon, ko‘ngul va qiz kabi leksemalar turkiy tilning qadimiy qatlamiga mansub bo‘lib, ularning etimologiyasi turkiy ildizlarga borib taqaladi. Kelgusida ushbu dostondagi boshqa leksemalarni ham etimologik jihatdan o‘rganish o‘zbek tilining tarixiy rivojini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford, 1972, p. 611.

(2). Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. М., “Наука”, 1980, т. III, с. 136.

(3). Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Т. II, с. 54.

(4). Starostin S., Dybo A., Mudrak O. Etymological Dictionary of the Altaic Languages. Brill, 2003, p. 1156.

(5). Нафиков Ш.В. Древнетюркское könül, башкирское күңел ‘сердце’: этимологические связи одного соматизма // Вестник ЕНУ им. Л.Н.Гумилева. Серия: Филология, 2021, № 2(135), с. 149.

(6). Gülensoy T. Türkiye Türkçesindeki Türkçe Sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü. Ankara, TDK, 2007, Cilt 1, s. 367.

(7). Räsänen M. Versuch eines etymologischen Wörterbuchs der Turksprachen. Helsinki, 1969, s. 291.

(8). Gülensoy T. Türkiye Türkçesindeki Türkçe Sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü. – Ankara: TDK, 2007, Cilt 1, s. 504.

(9). Рустамов А. Сўз хусусида сўз. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1987, 28–29-бетлар.

(10). Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Тошкент, “Фан”, 1960, т. 1, 312-бет.

Masharipova Valentina Sergeyevna (doctoral candidate at Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni; e-mail: valentina@urdu.uz)

THE LINGUISTIC STATUS OF THE PARALINGUISTIC COMPONENT IN THE PORTRAIT DESCRIPTION OF A PERSON

Annotation. *This paper investigates the linguistic status of the paralinguistic component in the verbal portrait of a literary character. The paper considers whether this linguistic status is peripheral or an integral resource of portraiture. Paralinguistic- containing portrait contexts were exhaustively selected from two novels (A. Tolstoy’s “Sisters” and J.Galsworthy’s “The Man of Property”), classified according to a three-level taxonomy (modality → group → subgroup), and compared by the chi-square test and Cramér’s V.Parakinesic means predominate in both works (59.3% vs 72.0%); the leading group is suprasegmental means in Tolstoy vs facial expression in Galsworthy. The study offers a verifiable taxonomy-based methodology and the first comparative quantitative profile of the paralinguistic component in portrait description.*

Key words: *paralinguistics, paralinguistic component, portrait description, verbal portrait, paraphonetic means, parakinesic means, facial expression, gesture, suprasegmental (paraprosody), comparative linguistic analysis*

Masharipova Valentina Sergeyevna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; e-mail: valentina@urdu.uz)

INSONNING PORTRET TAVSIFIDA PARALINGVISTIK KOMPONENTNING LINGVISTIK MAQOMI

Annotatsiya. *Ushbu maqola adabiy qahramonning og‘zaki portretidagi paralingvistik componentning lingvistik holatini o‘rganadi. Maqolada ushbu lingvistik holat portretning periferik yoki ajralmas*